

POLYGONIUM AVICULARE L. O'SIMLIGINING BOTANIK TAVSIFI VA BIOLOGIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISH

Abdullayeva Shahrizoda Behzod qizi. To'xtayev F.X.

Toshkent Farmatsevtika instituti

Toshkent. O'zbekiston Respublikasi

e-mail: ismatullayevashahrizoda7@gmail.com tel: +998770580700

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22109446>

Annotatsiya

Ushbu tezisda Polygonium aviculare L o'simligining botanik tavsifi va biologik xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Osimlikning morfologik tuzulishi, poyasi, barglari, gullari va mevasining o'ziga hos xususiyatlari keltirib o'tilgan. Shuningdek, qushtoron tarkibidagi askorbin kislotasi, kversetin, karotin va oshlovchi moddalar haqida ma'lumot berilgan. O'simlik preparatlarining inson tanasiga bo'lgan foydali va davolovchi xususiyatlari haqida qayd etilgan. Olingan ma'lumotlar Polygonium aviculare L o'simligining farmatsevtik va biofarmatsiya sohalarida istiqbolli dorivor xomashyo sifatidagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Polygonium aviculare L, qushtoron, botanik tavsif, biologik xususiyat, kimyoviy tarkib, dorivor o'simliklar, flavonoidlar, biofarmatsiya.

Qushtoron – torondoshlar oilasiga mansub. Qushtoron o'simligi o'q ildizli tuzilishga ega bo'lib, bo'yi 30sm gacha bo'lgan bir yillik o't o'simlikdir. Poyasi yoyilib o'suvchi, shoxlanmagan, bargi mayda, cho'ziq lansetsimon, to'mtoq uchli, tekis qirrali, poyada bandi bilan ketma – ket o'rnashgan. Barg bandi bilan poyani o'rab turuvchi yondosh bargchalardan tuzilgan yupqa pardachasi bor. O'simlikning gullari yashil, 1-5 tadan barg qo'ltig'ida joylashgan. Gulqo'rg'oni oddiy tuzilgan bo'lib, yarmigacha qirqilgan va cheti qizg'ish yoki oqish rangga bo'yalgan 5 ta toj bargdan tashkil topgan. Otaligi 8 ta, onalik tuguni bir honali, yuqoriga joylashgan. Mevasi esa uch qirrali ko'rinishga ega bo'lgan qora yong'oqchadir.[1]



Qushturon o'simligining kimyoviy tarkibida 120-887 mg % askorbin kislotasi, avikulyarin, kversetin, karotin va kam miqdorda efir moyi, 3-4 % oshlovchi moddalardan iborat. Qushturon gullari tarkibida flavonlar, ildizida esa antraxinon moddalarini saqlaydi. [2]

Endi o'simlikning dorivor xususiyatlari haqida adabiyotlardan foydalangan holda ma'lumot berib o'taman. O'simlik preparatlari qon ivish jarayonini tezlashtiradi, yallig'lanishga

qarshi, zamburug'larga qarshi va siydik haydovchi xususiyatlarni namoyon qiladi. Shilliq qavatlardan qon ketishini kamaytiradi, arterial qon bosimini o'rtacha saqlashga yorgam beradi, yaralarni bitishini tezlashtiradi va immunitetni oshiradi. Bu o'simlik preparati tashqi qo'llash natijasida turli hil teri kasalliklari, yaralar va lat yeyishlarni davolashda qo'llaniladi. Bu hususiyatlar o'simlik preparatini biofarmatsiyada keng ishlatilishiga sabab bo'lmoqda. [3]

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. N. P. Manandhar. Plants and people of Nepal. Oregon: Timber Press. pp. 877- 891. 2002. Available: <https://ethnobiology.org/sites/default/files/pdfs/JoE/23-2/Sacherer2003.pdf>
2. Ubaydullayeva X.A. Gerbapol substasiyasi va tabletka dori shaklining texnologiyasini ishlab chiqish (PHD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya
3. O. T. Wulan, R. B. Indradi. Review: profil fitokimia dan aktivitas farmakologi gedi (Abelmoschus manihot (L.) Medik.). [Review: Phytochemical profile and pharmacological activity of gedi (Abelmoschus manihot (L.) Medik.). Farmaka, 16 (2): 202-209. 2018. Available: <https://jurnal.unpad.ac.id/farmaka/article/viewFile/17524/pdf>